

Категория невинности в «Преступлении и наказании» — это не периферийная тема, а сердце романа. Она показывает, что человек может переступить через всё, кроме невинности — потому что в этот момент он переступает через самого себя, через Бога в себе. Только через соприкосновение с невинностью (Соней, детьми, памятью о Лизавете) Раскольников начинает долгий путь к воскресению.

Как писал П. Е. Фокин: «Финал романа — не счастливый не потому, что Раскольников стал хорошим, а потому, что он снова стал способным любить. Любовь же рождается только там, где сохраняется хотя бы крупинка невинности» [7. -с. 412].

Понимание невинности у Достоевского помогает нам и сегодня — в мире, где снова появляются теории о «высших» и «низших», — помнить, что кровь невинного всегда кричит, и никакая идея не стоит этой крови.

Список использованной литературы :

1. Ф.М. Достоевский . Преступление и наказание . - М.: Эксклюзив : Русская классика , 2023. - С. 80.
2. Ф.М. Достоевский . Преступление и наказание . - М.: Эксклюзив: Русская классика , 2023. - С. 400.
3. Розанов В.В Легенда о Великом инквизиторе Ф. М. Достоевского. - М.: Республика , 1996. - С. 234
4. Фокин П.Е. Достоевский . Преступление и наказание . - М.: Рипол - классик , 2021. -С. 187
5. Михайловский Н.К. Литературно - критические статьи . - М.: Художественная литература , 1957. - С. 98.
6. Лихачёв Д.С. О русском . - М.: Время , 2009. - С. 56.
7. Фокин П.Е. Достоевский . Преступление и наказание . - М.: Рипол -классик , 2021. - С. 412.

---

**Turdaliyeva D.S**, FarDu dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc).



---

## XALQ MAQOLLARIDA TAGMA'NONING IFODALANISH OMILLARI

<https://zenodo.org/records/19863354>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalq maqollarida uchraydigan tagma'noning ifodalanish jihatlari nazariy jihatdan tadqiq qilingan. Insonning olamni bilish jarayoni maqol va matallarda aks etishii, ya'ni o'z xulosalarini maqollar mazmuniga yashirishi ham misollar asosida dalillangan. Xalqimizda hayotiy tajribalarning majmuyi quyma satrlarda o'z ifodasini topishi, uni inson hayotiy tajribalarning oynasi deya olish, shuning uchun ham maqollar sodda, ixcham va go'zal bo'lishi, soddalik mazmun jilosiga burkanib, go'zallik kasb etishi mohirona yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** maqol, matal, oʻz maʼno, koʻchma maʼno, tagmaʼno, tagbilim, pressupoziitsiya, obraz, janr, hikmat.

### **ФАКТОРЫ ВЫРАЖЕНИЯ СМЫСЛА В НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ**

**Аннотация.** В данной статье теоретически исследуются выразительные аспекты смысла, содержащегося в народных пословицах. На примерах также доказывается, что в пословицах и изречениях отражается процесс человеческого познания мира, то есть их выводы скрыты в содержании пословиц. Умело показано, что комплекс жизни и опыта нашего народа находит свое выражение в строках пословицы, которые можно назвать заменой человеческой жизни и опыта, и поэтому пословицы просты, лаконичны и прекрасны, а простота покрывается блеском содержания и приобретает красоту.

**Ключевые слова:** пословица, изречение, собственное значение, переносное значение, метафора, предположение, образ, жанр, мудрость.

### **FACTORS OF EXPRESSION OF MEANING IN FOLK PROVERBS**

**Annotation.** This article theoretically studies the expressive aspects of the meaning found in folk proverbs. It is also proven on the basis of examples that the process of human cognition of the world is reflected in proverbs and sayings, that is, that their conclusions are hidden in the content of proverbs. It is skillfully illustrated that the complex of life and experiences of our people finds its expression in the lines of the proverb, which can be called a substitute for human life and experiences, and therefore proverbs are simple, concise and beautiful, and simplicity is covered with the gloss of content and acquires beauty

**Keywords:** proverb, saying, proper meaning, figurative meaning, metaphor, presupposition, image, genre, wisdom.

**Kirish.** Maqollar ixcham, sodda boʻlish bilan birgalikda, mazmunan murakkab boʻladi. Mazmuniy qobiqda hikmatona, ibratona maʼnolar jamlanadi. Ibratona fikrlar uzoq hayotiy tajribalar mahsuli sifatida maydonga keladi. Shuning uchun maqollar avloddan-avlodga oʻtib, oʻz qadrini, qimmatini yoʻqotmay kelmoqda. Maqollar xalqimiz aql-zakovatining nodir mevasidir. Shuning uchun ularning zamirida insonning aqliga havola etilgan ibratona tagmaʼnolar mavjud. Unda soʻzlarning sarasi ishtirok etib, turli vositalar orqali sharoit uchun mos maʼnosini tanlab olinadi. Maqollar xalq ijodiyotining nodir xazinasi boʻlib, bu xazina rang-barang boyliklardan iborat. Shu boisdan, maqollar hayotning barcha tabaqasini qamrab olgan. Ularning mavzu jihatidan xilma-xilligi hayotning murakkabligidan, serqirra ekanligidan dalolat beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ukrainalik tadqiqotchi I.Jodani “semiotika” atamasining oʻzigina semiotika metodologiyasi va tilshunoslik bilan aloqador tushuncha ekanligi, prefikslardan eng maqbuli esa “koʻp (bir nechta)” maʼnosini beruvchi “multi” yoki “poli” ekanligini eʼtirof etadi. Shu bois sanʼatlar sintezi fenomenini “multisemiotiklik” yoki “polisemiotiklik” deb atash eng toʻgʻri usul deb hisoblaydi. Bu borada biz maqollarni “*multisemiotik tizim*” deb atashni taklif qilamiz. Bundan tashqari maqollarda shakliy va mazmuniy nomutanosiblik mavjud. Bunday nomutanosiblik faqat maqollardagina emas, xalq yaratgan boshqa maʼnaviy boyliklarda ham bor. Shakl va mazmun nomutanosibligining yuzaga kelishi, mazmuniy murakkablik turli vositalar orqali maydonga keladi, bunday

mazmuniy murakkablik tilshunoslikda “tagbilim”, “tagma’no”, “pressupozitsiya” deb o’rganiladi.

Maqollarda tagma’no nihoyatda kuchli bo’lib, har bir so’z zamirida buni tushunish mumkin. Shuning uchun ulardagi so’zlar ramziy ma’nolarda qo’llanadi. U yoki bu maqolning ko’chma ma’nosini, unda nima deyilmoqchi bo’layotganini aniqlash uchun maqollarda keltirilgan obrazlarning mohiyatini to’g’ri anglamoq kerak.

**Natijalar.** Xalq og’zaki ijodining ko’p janrlarida, jumladan, maqollarda ham jamiyatdagi munosabatlar, hodisa va holatlarni sodda, oydin ifodalash maqsadida tabiatdagi o’z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar (hayvonlar, o’simliklar, ularning mevalari, jismlar, uy jihozlari, kiyim-kechaklar, ish qurollari, mehnat mahsulotlari va h.) obrazlaridan ustalik bilan foydalaniladi. Masalan, xalqimiz sherni mard, dovyurak, botirlarga, chumolini mehnatkash mazlumlariga, qurbaqani dangasa, ishyoqmas kishilarga o’xshatadi. Shu sababli maqollarda timsol asosidagi ma’nolarni tushunishda tagma’no qo’l keladi. E’tibor “kosa tagidagi nimkosa”ga qaratiladi. Maqollarda “tagma’no” (yoki “ichki ma’no”) deganda, ularning yuzaki mazmuni ostidagi chuqurroq, yashirin yoki ko’proq umumlashtirilgan ma’no nazarda tutiladi. Tagma’no ko’pincha obrazli, metaforik yoki allegorik ifodalar orqali namoyon bo’ladi. Bu ma’no ko’pincha xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va qimmatli saboqlari bilan bog’liq.

**Muhokama.** Tagma’noni aniqlash va tushunish uchun quyidagi omillarni ko’rib chiqish mumkin:

1. *Obrazli tafakkur.* Maqollarda ko’pincha biror hodisa yoki voqea obrazlar orqali tasvirlanadi. Yuzaki ma’no oddiygina bo’lishi mumkin, lekin bu tasvir orqali chuqurroq ma’no yetkaziladi. Masalan: “*Chumchuq so’ysa ham, qassob so’ysin*” degan maqol yuzaki qaraganda, chumchuq so’yish haqida gapirayotganga o’xshaydi, lekin aslida u har bir ishni o’z mutaxassisi bajarishi kerakligi haqida chuqur ma’noga ega.

2. *Metaforik ma’no.* Metaforalar ko’pincha maqollarda ishlatiladi va tagma’nosini tushunish uchun ularni talqin qilish zarur. Masalan: “*Olov bo’lsa, tutun chiqadi*” maqoli yuzaki ma’noda oddiy fizik hodisani ifodalaydi, lekin aslida har qanday harakat yoki voqea natijasiz qolmaydi, degan ma’noni ifodalaydi. Yangidan paydo bo’layotgan axborot va bilim darajasining o’sishi natijasida insonlarning olam haqidagi tasavvuri yangilanib, o’zgarib boradi. Bizga avval odatiy bo’lib tuyulgan ma’no metafora maqomini oladi.

3. *Qiyosiy yondashuv.* Maqollar, ko’pincha, qiyoslash orqali ma’no beradi. Bu qiyoslar tagma’noni ochib beradi. Masalan: “*Qozon qaynasa, ichida suyak qolmaydi*” maqoli har qanday muammoli vaziyatda muammo hal bo’lishini yoki haqiqat yuzaga chiqishini anglatishi mumkin.

5. *Kontekstual talqin.* Maqolning tagma’nosi ko’pincha uning qanday kontekstda ishlatilganiga bog’liq. Shu sababli, bir maqolning tagma’nosi turli vaziyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan: “*Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi?*” maqoli ma’nosini turli kontekstlarda boylikning qadrini yoki boshqa qadriyatlarining oltindan ham qimmatroq ekanligini ifodalaydi.

6. *Xalq tajribasi va madaniy meros.* Maqollarning tagma’nosi ko’pincha xalqning ko’p asrlik tajribasi va madaniy merosi bilan bog’liq bo’ladi. Masalan: “*Avval kelgan ho’kiz,*

*suvning tozasini ichadi*” maqoli faqat tashabbus va harakat qilish orqali maqsadga erishish mumkinligini ifodalaydi.

**Xulosa.** Tagma’no ko‘pincha odamlarning chuqur hayotiy tajribalariga asoslanadi va bu tajribalar turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda yanada boyitiladi. Shu sababli, maqollarni to‘liq tushunish uchun ularning tagma’nolarini anglash zarur. Xalq maqollari turli xil madaniy va ijtimoiy kontekstlarda turlicha ma’nolarni berishi, shuningdek, bir butunlikdagi katta diskursiv tuzilmaning bir qismi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Diskursda maqollarning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyatini tushunish uchun ularning qanday ishlatilishi, qanday ma’no berishi va qanday turdagi kommunikativ vazifalarni bajarishi haqida chuqurroq mulohaza yuritish zarur.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.Сафаров Ш. Метафора ҳодисаси талқинига янгича ёндашув имкониятлар. // Хорижий филология, 2020.
- 2.<http://gorniyvestnik.uz/assets/uploads/pdf/2017-yanvar-mart.pdf>.
- 3.Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990.

---

**М.А.Жо‘rayeva** FarDU filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Ibroximova Zaynabxon Akbarjon qizi**, FarDU magistranti



---

**ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING QISSACHILIK MAHORATI**

<https://zenodo.org/records/19863462>

**Annotatsiya:** Maqolada Abduqayum Yo‘ldoshevning “Timsohning ko‘z yoshlari”, “Yurakdagi iz”, “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Begona shaharning namozshomlari”, “Yulduzlik”ning shafqatsiz to‘lovi”, “Otchopar”, “Shoirning muhabbati” qissalari hamda XXI asr boshlarida yozilgan ayrim asarlar qiyosiy tahlil etish orqali obrazlarning ruhiyati, xarakter xususiyatlari ochib berildi. Tahlil davomida yozuvchilarning biz obekt qilib olgan asarlaridagi shakl va mazmun, obrazlar tizimidagi o‘ziga xoslik, psixologik tasvirlardan foydalanish mahorati masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

**Kalit so‘zlar:** qissa, janr, mahorat, xarakter, syujet, konflikt, kompozitsiya, shakl, mazmun, mavzu, g‘oya.

**ПОВЕСТВОВАТЕЛЬНОЕ МАСТЕРСТВО АБДУКАЮМА ЮЛДОШЕВА**

**Аннотация:** В статье раскрываются психологические и характерологические черты персонажей посредством сравнительного анализа рассказов Абдукаюма Юлдошева «Слезы крокодила», «След в сердце», «Первая суббота Сунбулы», «Молитвы чужого города», «Жестокое возмездие звездности», «Пожарный», «Любовь поэта» и некоторых произведений, написанных в начале XXI века. В ходе анализа особое внимание уделялось вопросам формы и содержания, оригинальности системы